

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI QARORI

Tadbirkorlik subyektlari uchun biznes jarayonlarida elektron hujjatlar aylanishi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ID-69994

Joriy yilning 22-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan “ochiq muloqoti” doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, biznes uchun hujjatlarni (shu jumladan arxiv, bank, soliq, statistika sohalarida yuritiladigan yoki tegishli davlat xizmatlarini olishda foydalaniladigan hujjatlarni) qog‘oz shaklida saqlash va davlat idoralariga topshirish amaliyotini tadbirkorlar ishtirokida keng muhokama qilinishi natijalariga ko‘ra:

1. "O‘zarxiv" agentligi, Davlat statistika qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi 2023-yil 1-yanvar kunigacha “O‘zarxiv” va Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan o‘rnatilgan hujjatlar ro‘yxatlari va ularni saqlash muddatlari inventarizatsiyasini o‘tkazsin va quyidagi hujjatlarni aniqlasin:

- xo‘jalik subyekti ixtiyoriga ko‘ra saqlanishi lozim bo‘lgan;
- davlat organlarining axborot tizimlarida faqat elektron shaklda saqlanishi lozim bo‘lgan;
- xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan qog‘oz yoki elektron shaklda majburan saqlanishi lozim bo‘lgan hujjatlarni.

Inventarizatsiya natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori tayyorlansin.

2. Belgilansinki:

a) davlat arxiviga qog‘oz shaklida taqdim etiladigan jismoniy shaxslarning 2022-yil 1-yanvardan keyin hisoblangan ish haqi va boshqa daromadlari hamda ular bo‘yicha hisoblangan soliq summalari to‘g‘risidagi hujjatlarni davlat arxiviga topshirish amaliyoti bekor qilinadi. Bunda, ish haqi va boshqa daromadlarning hisoblanishida jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami yuritilishi ishonchliligi bo‘yicha javobgarlik soliq to‘lovchi tashkilotlarning mansabdor shaxslari zimmasiga yuklatiladi.

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan har bir jismoniy shaxs o‘zining hisoblangan daromadlari va ular bo‘yicha to‘langan jismoniy shaxslarning daromad solig‘i ma’lumotlarni olish bo‘yicha soliq.uz mobil ilovasida “ish haqqini tekshirish” interaktiv xizmati yo‘lga qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

b) 2022-yil 1-yanvardan tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlari va tashkilotlariga elektron tarzda topshirilgan va qabul qilingan moliyaviy, soliq va statistika hisobotlarini qog‘oz shaklida saqlamaslik hamda davlat arxiviga topshirilmaslik huquqi berilsin.

Bunda, soliqlar va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblanganligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan buxgalteriya va soliq hisobiga oid birlamchi xujjatlar (elektron hisob-

fakturalar va onlayn nazorat-kassa mashinalarining cheklari nusxalari bundan mustasno) tadbirkorlik subyektlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda saqlanishi lozim.

Litsenziyalanadigan faoliyatni yoki ruxsat berish va xabardor qilish tartib taomiliga ko‘ra faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar litsenziya olish va litsenziya talablarini bajarish bilan bog‘liq hujjatlarni saqlash tartibi qonunchilikka muvofiq da’vo muddati davrida saqlab qolinadi;

v) 2024-yil 1-yanvardan o‘zining buxgalteriya va soliq hisobini dasturiy ta‘minot yordamida yuritgan tadbirkorlik subyektlari buxgalteriya registrlari va boshqa hisob hujjatlarini davlat arxiviga elektron tarzda taqdim etish huquqi beriladi;

g) 2023-yil 1-yanvardan boshlab:

moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standarti asosida tayyorlaydigan tadbirkorlik subyektlari ushbu hisobotlarni soliq organlariga choraklik topshirish amaliyoti bekor qilinadi;

aylanmadan olinadigan soliqning qat‘iy belgilangan summasini to‘laydigan tadbirkorlik subyektlari soliq organlariga moliyaviy hisobotlarni taqdim etish majburiyatidan ozod etiladi.

3. 2023-yil 1-yanvardan boshlab ilovaga muvofiq tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan statistika hisobotlari topshirilishi bekor qilinadi.

Bunda mazkur ma‘lumotlarni qoplash ilovada keltirilgan tegishli vazirlik va idoralarning ma‘muriy ma‘lumotlari asosida har yili Hukumat tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturiga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasiga taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

4. Davlat statistika qo‘mitasi (B.Begalov) statistika hisobotlarini maqsadga muvofiqligi, optimallashtirish va ularni topshirish muddatlarini qayta ko‘rib chiqsin. Bunda, soliq organlarida mavjud ma‘lumotlar statistika hisobotlariga kiritilmaydi, aksincha soliq hisobotlari orqali taqdim etilgan ma‘lumotlarni o‘zaro almashish orqali qabul qilinadi.

5. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan va tadbirkorlik subyektlari tomonidan tegishli davlat organlariga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlar 2023-yil 1-yanvardan:

- davlat soliq xizmati organlariga;
- ta‘sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga taqdim etiladi.

Davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan moliyaviy hisobotlar ma‘lumotlarini elektron shaklda quyidagilarga taqdim etadilar:

- davlat statistika organlariga;
- qonunchilikka muvofiq boshqa organlarga.

Davlat statistika qo‘mitasi (Begalov B.) Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda (Kudbiyev Sh.):

- moliyaviy hisobotlarda mavjud ma’lumotlarni statistik hisobotlardan chiqarib tashlasin;

- bir oy muddatda statistik hisobotlardan bir vaqtning o‘zida davlat soliq xizmati organlariga hisobotlar tarzida topshiriladigan haqi boshqa axborotlarni chiqarib tashlash borasida takliflar kiritsin;

- joriy yil oxirigacha axborot texnologiyalarini rivojlantirish vazirligining ishtirokida soliq va statistik organlar o‘rtasida axborot almashinuvining avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqib, joriy etsin.

6. Mehnat vazirligi Davlat statistika qo‘mitasi bilan birgalikda bir oylik muddatda:

- qonunchilik normalarini qayta ko‘rib chiqsin, shuningdek, elektron shakldagi kadr hujjatlari aylanmasini yo‘lga qo‘yish uchun texnik sharoitlar yaratsin;

- F-6 shakldagi "Ishlayotgan va bron qilingan harbiy xizmat yoshidagi xodimlar soni» nomli hisobotni bekor qilsin;

- alimentlar bo‘yicha majburiyatlarni hisobga olishning butun tizimini elektron shaklga o‘tkazsin;

- T-2 shaklidagi shaxsiy kartochkalarni to‘ldirish va saqlash amaliyotini bekor qilsin. Tegishincha, Mehnat daftarchalarini yuritish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomama ham bekor qilinsin.

7. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar ichki hujjat aylanmasini mustaqil tashkil etishlari belgilansin, shu jumladan hujjatlarni faqat elektron shaklda tuzish bilan, basharti buning uchun foydalaniladigan dasturiy mahsulotlar:

- litsenziyalangan bo‘lsa;

- foydalanuvchilarni login va parol yordamida avtorizatsiya qilishni nazarda tutsa.

8. Markaziy bank (M.Nurmuratov) tijorat banklari bilan birgalikda bir oy muddatda tadbirkorlik subyektlarining biznes jarayonida bank xizmatlari (shu jumladan kreditlar berish) bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni masofadan amalga oshirish, tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni davlat organlarida mavjud ma’lumotlar va mijozlarning elektron hujjatlariga asosan xizmat ko‘rsatilishini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqsin.

9. “O‘zarxiv” agentligi (Yusupov):

O‘zkomnazorat huzuridagi “Axborot texnologiyalar va axborot resurslarini rivojlantirish markazi” davlat unitar korxonasi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-yanvarga qadar “Arxiv” axborot tizimini tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilgan holda tadbirkorlik subyektlarining dasturiy ta’minot vositasida jamlangan hisob hujjatlarini faqatgina elektron ko‘rinishda qabul qilish, saqlash hamda so‘rovga ko‘ra taqdim etish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin.

Adliya vazirligi (Davletov) bilan birgalikda hujjatlarning turi va ularning muddatlarini belgilash maqsadida tadbirkorlik subyektlari faoliyatda shakllanadigan hujjatlarining saqlash muddatlari ko‘rsatilgan namunaviy ro‘yxatini ishlab chiqsin va davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari vazirligi, “O‘zarxiv” agentligi, Davlat statistika qo‘mitasi, Moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan:

- uch oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi hududida “Ishonchli uchinchi tomon” tamoyili asosida berilgan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hujjatlarning haqiqiylikini aniqlash imkonini beradigan “Yagona elektron hujjatlar” tizimini ishlab chiqishsin va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ma’lumotlar bazasini yaratish hamda yuritish tartibini nazarda tutuvchi qaror loyihasini kiritsin;

- DSQ, Davlat statistika qo‘mitasi, Mehnat vazirligi va Xalq bank hisobot shakllariga kiritilgan bir xil ko‘rsatkichlarni avtomatik tarzda aks etirilishini ushbu tashkilotlarning raqamli tizimlarini integratsiya qilish yoki boshqa texnik usul bilan ta’minlash;

Ishonchli shaxsning ishonchnomadagi ERIsi bo‘lishi talabini bekor qilish. Yuridik shaxsning manziliga kelgan barcha hujjatlarni, ularda ishonchli shaxslarning ERIsi bor-yo‘qligidan qat’iy nazar, ko‘rib chiqishning texnik imkoniyatini taqdim etish.

11. 2023-yilning 1-yanvar kundan xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari):

- soliq hisobotlarini oylik davrdan choraklik davrga o‘tkazish - oylik soliq hisobotlarini topshirgan subyektlar uchun;

- soliqlarni to‘lash muddatlarini oylik davrdan choraklik davrga o‘tkazish – shu paytgacha soliqlarni to‘lash muddatlari oylik bo‘lgan subyektlar uchun;

- avans to'lovlarini to'lash muddatlarini har oydan har choraklik qilib belgilash, bunda foyda solig'i bo'yicha avans to'lovlarini bekor qilish.

Yirik soliq to'lovchilari bo'yicha mintaqalararo davlat soliq inspeksiyasiga soliq hisobotlarini taqdim etuvchi yirik soliq to'lovchilari uchun avval amalda bo'lgan soliq hisobotlarini taqdim etish va soliq to'lash muddatlari saqlanadi.

Moliya vazirligi (Ishmetov T.) va Davlat soliq qo'mitasi (Kudbiyev Sh.) bir oylik muddatda:

- Soliq kodeksi va boshqa me'yoriy hujjatlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishsin;

- kichik tadbirkorlik subyektlariga yillik moliyaviy hisobotlarning soddalashtirilgan shakllarini ishlab chiqishsin.

12. Yer solig'i, mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanish solig'i, JSHDSni hisobga olish joyida emas, boshqa joyda to'lash majburiyati bo'lgan soliq to'lovchilarning barcha toifalari uchun soliq hisobotlarini topshirishni markazlashtirish. Tegishli soliq hisobotlariga soliqqa tortish obyektining joylashgan joyini aniqlash uchun qo'shimcha ma'lumotlar ustuni kiritilsin.

13. Davlat idoralariga, agar zarur axborot davlat va boshqa axborot tizimlarida mavjud bo'lsa, unda yuridik va jismoniy shaxslardan qog'oz hujjatlarni so'rab olish ta'qiqlanadi.

Adliya vazirligi bir oylik muddatda davlat idoralari mas'ul shaxslarining hujjatlarni (shu jumladan qog'oz hujjatlarni) noqonuniy talab qilish uchun javobgarligini kiritish bo'yicha taklif kiritsin.

14. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari vazirligi, "O'zarxiv" agentligi, Davlat statistika qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda: 2023-yil 1-iyungacha "O'zbekiston Respublikasida hujjatlar aylanmasini raqamlashtirishni jadallashtirish konsepsiyasi"ni ishlab chiqsin, unda quyidagilar ko'zda tutilsin:

- yuridik jihatdan ahamiyatli hujjat aylanmasini yo'lga qo'yish uchun to'laqonli me'yoriy, tashkiliy va texnologik asos yaratish;

- elektron hujjatlarni yaratish, ularning aylamasi, saqlanishi va foydalanilishi uchun yagona metodologiya ishlab chiqish;

- hujjatlarning qog‘oz shaklidan elektron ko‘rinishiga o‘tishning navbati, o‘tishning majburiyligi va ixtiyoriyligi;

- elektron imzoni qo‘llashni kengaytirish uchun sharoitlar yaratish;

- elektron hujjat aylanmasini EDIFACT standarti bo‘yicha tashkil etish, bu milliy hujjat aylanmasini xalqaro tizimlar bilan integratsiya qilishga imkon beradi;

- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro va davlat hokimiyati organlari bilan hamkorligida elektron hujjat aylanmasining yuridik jihatdan ahamiyatli bo‘lishini ta‘minlash;

- hujjatlarni “O‘zarxiv” agentligi bazasida shakllantirish va saqlash tizimini yaratish, bunda hisob tizimlari ishlab chiquvchilariga majburiy tartibda ochiq shlyuz (API) taqdim etishni nazarda tutish.

15. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, “O‘zarxiv” agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda “Ishonchli uchinchi tomon” tamoyili asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida berilgan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjatlarning haqiqiylikni tasdiqlash imkonini beruvchi “Yagona elektron hujjatlar” ma’lumotlar bazasini yaratish va uni yuritish tartibini nazarda tutuvchi normativ huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqib Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

16. Davlat soliq qo‘mitasi (Sh.Kudbiyev) 2023-yil 1-yanvarga qadar “O‘zarxiv” agentligi bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlari tomonidan jismoniy shaxslarga hisoblangan ish haqi va boshqa daromadlariga oid ma’lumotlari davlat arxiviga soliq organlarining axborot bazasidan olinishi ta‘minlansin.

17. Moliya vazirligi (T.Ishmetov) ikki oy muddatda kichik va mikro biznes subyektlarining soddalashtirilgan yillik moliyaviy hisobot shakllarini ishlab chiqsin.

18. Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat statistika qo‘mitasi, “O‘zarxiv” agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda o‘z normativ-huquqiy hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritсин.

19. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib O‘zbekiston Respublikasi moliya vaziri T.A. Ishmetov hamda Davlat soliq qo‘mitasi raisi Sh.D. Kudbiyev belgilansin.

20. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari J.A. Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

# O‘zbekiston Respublikasining

Prezidenti

Sh. Mirziyoyev

\*\*\*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2022-yil \_\_\_\_ \_\_\_\_\_ dagi PQ-\_\_\_\_-son  
qaroriga

ILOVA

**Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan o‘z kuchini yo‘qotgan  
deb hisoblanadigan statistika hisoboti shakllari**

## RO‘YXATI

T/R	Statistika hisoboti nomi	Davriyligi	Ma’lumotni qoplash manbaasi
1.	1-birja shakli – “Birja faoliyati To‘g‘risida _____yil uchun hisobot”	Yillik	“Respublika ko‘p tarmoqli agrosanoat birjasi” AJ “O‘zbekiston Respublika valyuta birjasi” AJ “O‘zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi” AJ “Toshkent” Respublika fond birjasi AJ
2.	1-msh shakli – “Mehnat sharoitlari ahvoli to‘g‘risida ____ yil uchun hisobot”	Yillik	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi
3.	1-nh shakli – “Hisoblangan ish haqi miqdori bo‘yicha xodimlar sonining taqsimlanishi to‘g‘risida yil noyabr oyi hisoboti”	Yillik	Davlat soliq qo‘mitasi
4.	1-temir yo‘l (umumfoydalanadigan) – “Umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti xizmatlari to‘g‘risida _____yil uchun hisobot”	Yillik	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ
5.	1-tb shakli – “Tijorat banki faoliyati to‘g‘risida _____yil uchun hisobot”	Yillik	Markaziy bank

6.	1- sug'urta shakli – “Sug'urta tashkiloti faoliyati to'g'risida ____yil uchun hisobot”	Yillik	Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi
7.	1-kb (qm) (1-kb shakliga ilova) - “Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalarda mavjud qurilish mashina va mexanizmlar to'g'risidagi ____yil uchun hisobot”	Yillik	Qurilish vazirligi
8.	4-meva sabzavot – “Meva-sabzavot mahsulotlari xaridi to'g'risida hisobot”	Choraklik	“O'zbekoziqovqatzaxira” uyushmasi va “O'zagroyeksport” AJ kompaniyasi
9.	4-quvur yo'li – “Quvur yo'li transporti faoliyati to'g'risida hisobot”	Choraklik	“Uztransgaz” AJ, “Azia Transgaz” AJ

\*\*\*